

NEMIS TILIDA MODAL FE’LLARNING XUSUSIYATLARI VA O’ZBEK TILIDA BERILISHI

Ismoilova Sadoqat Alisherovna

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Turizm
fakulteti Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili
2-kurs bakalavr
Ilmiy rahbar: Zaripova Ziyoda*

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan chuqur tadqiqot olib borilga holda, nemis tilidagi ruxsat, ijozat, majburiyat ma’nolarini ifodalovchi modal fe’llar hamda ularning ifoda vositalari, o’ziga xos xususuyatlari haqida tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: shaxslar, modal, modal fe’llar, leksik-gramatik usul.

Nemis tilida Modal fe’llar keng qamrovli tushuncha bulib, fan proffessorlar tomonidan hali hamon izlanishlar olib borilmoqda. Shunga qaramasdan bu sohada muhokama qilinishi asos bula oladigan jihatlar talaygina. Ushbu maqola orqali esa nemis tilidagi qobilyat, imkoniyat, majburiyat va shu bilan birga ruxsat ma’nolarini ifodalovchi modal fe’llar hamda, ularning ifoda vositalari, o’ziga xos xususiyatlarini kurib chiqamiz.

Nemis tilidagi modal fe’llar ko’pincha modallikni aks ettirishda ishlatiladigan yordamchi fe’llarning kichik bir guruhidir. Ular boshqa fe’llardan yakka holda mo’no ifodalashi va o’zidan keyin kelgan boshqa bir so’zning ham ma’nosini o’zgartirishi bilan farq qiladi. Nemis tilida asosiy oltita modal fe’llar mavjud bulib ulardan **mussen, sollen durfen, wollen, mogen va konnen** lardir. Aniqki nemis tilida ham boshqa fe’llar ba’zan, har doim ham emas, modallar kabi turkumlanadi, bu esa nemis tilida **kuchli fe’llar** deb yuritiladi. Fe’llar barcha asosiy modal fe’llarning xususiyatini aks ettirmaydi. Nemis tilida modal fe’llar gapning ma’nosini yanada kuchaytirib beradi. Bizga ma’lumki, nemis tilida oddiy fe’llar ham kuchli fe’llar ham shaxslarga qarab tuslanadi. Yuqorida keltirib o’tilgan modal fe’llar asosan asosiy fe’l bilan gaplarda ishlatilinadi. Gaplardagi modal fe’llar ular mavzuga jalb qiladi va bu holda gapning dolzarb fe’li infinitevda ya’ni otishsiz jumla oxirida topiladi. Bunday hollarda, ular odatda fe’l bo’lishi kerak bo’lgan joyda joylashgan bo’ladi. Modal fe’llardan keyin kelgan mustaqil fe’l infinitev formasida to yuklamasiz ishlatiladi. Lekin ba’zi bir modal fe’llar buundan mustasno holatlari mavjud.

Nemis tilidagi barcha modal fe’llarni birma- bir ko’rib chiqamiz. Nemis tilida eng asosiy modal fe’llarimizdan biri bu **konnen ya’ni qobiyatni kimningdir yoki nimanidir qobilyatini qila olishini bildiradi**. Konnen modal fe’lini shaxslarga tuslab, gaplar orqali ko’rib chiqamiz.

Misol uchun ;Ich kann deutsch sprechen –Men nemischa **gapira olaman.**

Prasens

- | | |
|-------------------------|-------------------------|
| 1.Ich-kann | 4.Wir-kennen |
| 2.Du –kannst | 5.ihr-konnt |
| 3.er/sie/es kann | 6.sie/Sie-konnen |

- In zwei Monaten **kennen** wir uns ein Auto leisten.
- Er **kann** schwimmen wie ein schwimmer.
- Meine Schwester **kann** gut tanze.
- Ich **kann** dich leider nicht vom Bahnhof abholen.
- Wir **konnen** hier aussteigen.
- Ich kann meine Brille nicht finden.

Ikkinci modal fe'l bu **mussen** bu modal fe'li hisoblanadi . Bu modal fe'l **kerak**, **zarur** ma'nolarini beradi. Bu modal fe'limiz sollen modal fe'liga ham o'xshab ketadi ya'ni manosi jihatidan ishlatilinish o'rni esa mutlaqo fafq qiladi.

MUSSEN-kerak, zaruriyat kimningdir biron bir holatga nisbatan bajarishi lozimligini bildiradi. Bu modal fe'l ham boshqa modallar kabi egalik shaxslariga qarab tuslanadi. Misol uchun;

- Ich habe wenig Benzin und ich **muss** mein Auto tanken.
- Du must deine Hausaufgaben machen.
- Er muss in die Universität nicht fahren.
- Er braucht nicht in die Universität zu fahren. desak ham buladi.

Uchinchi modal fe'limiz bu **sollen** modal fe'li hisoblanadi .Bu fe'limiz so'ralishi kerak, talab qilinishi ,bo'lishi kerakligi kimnidir tomonidan aytlishi kerakligini bildiradi. Mussen modal fe'lidan farqli ravshda bunda boshqa bir inson tomonidan aytilgan ya'ni bajarilishi shart bo'lgan holatlarda foydalaniladi.

Boshqa fe'l bilan hozirgi mukammal yoki o'tmishdagi mukammal vaqt , ikkilamchi infinitev qurilishi ishlatiladi. Bu modal fe'limizni egalik shaxslariga moslab ma'nolarini kurib chiqamiz.

Misol uchun; Ich hatte fahren sollen-Meni haydashim kerak edi.

O'tgan zamon ma'nosida-Er sollte gestern ankommen. Kecha u kelishi kerak edi. Kelajak ma'nosida –Er soll das morgen haben.

To'rtinchi modal fe'limiz bu wollen modal fe'li ya'ni istayman hohlayaman degan ma'nolarda ishlatilinadi .Bu modal fe'da boshqa fe'llar kabi egalik shaxslari bir xil bo'lmaydi balki bunda o'zak o'zgarish hodisasi ro'y beradi. Wollen modal fe'lida 'o'unlisi 'I'unlisiga o'zgaradi.

- Singular Plural
- Ich-will wir-wollen

- Du-willst ihr-wollt
- Er/sie/es will Sie/sie wollen

Modalliklar ularning ismini boshqa bir fe'lni o'zgartirishi bilan izohlaydi. Bundan tashqari, ular har doim turli xil fe'llarning infinitev shakli bilan yasaladi. Oxirida infinitive uning ma'nosi aniq bo'lganda qoldirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ubungsgrammatik grundstufe Deutsch/Chirstian Fandrych-Klip und Klar
2. Deutsch als Fremdsprache Arbeitsbuch und kursbuch/Anna Breitsameter Sabine Glas-Peters Angela Pude-Menschen A2.1
3. Ernst Klett Sprachen GmbH, Rotebuhlstr.77.70178Stuttgart,2008